



International Scientific and Practical Conference on the  
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and  
Achievement of the Present and Future"



## XORAZM TURAR JOY BINOLARI HAQIDA

*Yusufov S.A., Raximova L.O.*

*Urganch davlat universiteti, "Arxitektura" kafedrasи stajyor o'qituvchilari. Urganch, O'zbekiston*

**Anantatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyatidagi turar-joy binolarining o'ziga xos ohanglari tasvirlangan. Shu bilan birga, hozirgi turar-joy binosi arxitekturaga yoki an'anaviy tarzda, shu jumladan fikr va tadqiqotga juda oz ta'sir qiladi.

**Kalit so'zlar:** uy-joy, dolon, ayvon, Xiva uslubi, Urganch uylari.

Har bir inson bolaligidan tevarak – atrofga doimo e'tiborda bo'ladi. Atrofdagi tabiatning jilvodor, turfa va takrorlanmas manzaralariga, odamlarning o'z qo'llari bilan yaratgan narsalardagi go'zaliklarni anglay boshlaydilar. Asta sekinlik bilan o'zлari ham go'zalik yaratishga harakat qiladilar. Insonlar nafaqat o'zlariga balki yashaydigon masksniga ya'ni yashaydigon mehnat qiladigan joyida shinam qulay muhit yaratishga xarakat qiladilar. Odamlardagi bu go'zal fazilat avloddan avlodga o'tib boraveradi. D.Nazilov takidlab o'tganiday “*Xammamizga ayonki yillar o'z fasillari bilan asrlarga ulanib ketaveradi. Avlodlar ketidan avlodlar kelaveradi. Lekin maskan o'zining asosiy ko'rinishini yoqatmaydi. Yani imorat to'rt devorligicha qolib, faqat biroz takomillashadi xolos. Maskan turiga qarab katta kichikligi bilan ajraladi. Biroz konsturiqtiv o'zgartirishlar kiritiladi, xizmat jihatdan zarur qismlar qo'shiladi. Avlodlarning dunyoqarashi, diniy etiqodi o'zgarishi mumkun. Biroq xar bir avlod o'z tuyg'ularini, muhabbatga, vataniga sodiqligini ollyjanob fazilatlarini saqlab qoladi, va ularni maskan buyum bezagida ifodalashga harakat qiladi. Ulardagi naqshnigorlarni mazmun bilan boyitadi?*”

Shu o'rinda turar joyga qisqacha tariff keltirib o'tsak; Turar joy - yashash maskani, boshpana joy, uy joy binolari. Oila isteqomat qiladigon uy, oilaning maishiy hayoti o'tadigan muhitdir. Turar joy iptidoiy davrlardanoq taom taylorlash libos kiyish qatorida paydo bo'lgan. Turar joylar me'morchilikda eng ko'p tarqalgan inshoat turi bo'lib boshqa turdag'i inshoatlarning shakillanishi va rivojlanishini ko'p jihatdan belgilab bergan. Turar joyning tashqi va ichki shakillari, turlari va ko'rinishlari jihatidan xilma-xilligi iqlim tabiiy geografik sharoit taqqozasi, ijtimoiy munosabatlar xususiyati, iqtisodiy moddiy turmush drajasi, madaniy va milliy an'analarga bog'liq xolda rivojlanib borgan. Turar joylar asrlar davomida tog' g'orlari, tabiatdagi oddiy boshpana bostirmalaridan boshlab zamonaviy ko'p qavatli uylargacha murakkab taraqqiyot jarayonini bosib o'tgan.


Mamlakatimizning har bir hududining oziga xos turar joy uylarining arxitekturaviy yechimlariga egadir. Biz ushbu moqalada aynan Xorazm viloyatining turar joy inshoatlari arxitekturasiga to'xtalib

E-mail address: editor@centralasianstudies.org

(ISSN: 2660-6844). Hosting by Central Asian Studies. All rights reserved..


o'tamiz.

Xorazm turar joy uylari yurtimizning boshqa viloyatlar turar joy arxitekturasidan farqli jihatni shundaki uning xonalar tarkibidan yana bir xona “dalon”ning o’rin olganligi bo’sa yana bir jihatni bu uyning barcha xonalari yaxlit bir kompleks jihatida loyihalanishindadir.



1930-yillardagi Xorazm viloyatining qishloq xududlaridagi turar joy uyining tarhiy tuzilishi [arxiv rasmlaridan olingan]

Dalon umumiyligi tarif berganda bu xona umumiyligi xona sifatida xam qabul qilsak boladi. Unda oila yig’ilib birga dom olishlari, ovqatlanishlari, mehmon kutishlari mumkun bo’lgan. Bularidan tashqari bu xona orqli boshqa xonalarga o’tilishi ichkari hovliga o’tish imkoniyati ham bo’lgan. Ayrim xollarda dalonlarni ikki qismga bolishgan. Bundan maqsad uyda erkaklar alohida, ayollar va bolalar olohida o’tirib birgalikda vaqt o’tkazishgan. Bunday holat ko’pincha kata oilalarda kuzatilgan.




XXasrlarning o'rtalida dalonning interi [arxiv malumotlaridan olingan]

Xorazm viloyatining o'zida ham xar bir tumanning turar joy arxitekturasi rivojlanish bosqichlar bir biridan bir muncha farq qiladi; misol qilib oladigon bolsak Xiva shahrining uylarining tars ayvoni bilan ajrlib turadi. Ushbu tars ayvonning loyihaviy tarkibi shundaki unda ikkita ayvon bir biriga qarama – qarshi qilib loyihalanadi. Bunda bir ayvon balandligi 3-4 m balandlikda bo'lsa ikkinchi ayvonning balandli 5-7 m balandlikda boladi. Bundan maqsad shundaki uydagи shamol aylanishini taminlashdir. Nisbatan baland qilib qurilgan ayvon o'zida shamolni ushlab qolib uni kichik ayvonga yetkazadi, shu orqali hovlida shamol aylanishi va uyga salqinlik bag'ishlaydi.



Ong ters ayvonli uyining ko'rinishi [Djumaboyev H. dissertatsiyasidan namuna]

Shu o'rinda shuni takidlab o'tish kerakki ayvonlar ham bir nechta xilda loyihalangan. Ong ters ayvondan tashqari "ulli ayvon", "qo'sha ayvon" singari bir qancha turlari mavjud. Shuning uchun ham Xivada faqat ong ters ayvon qurilgan degan fikrlar biroz notog'ri bo'ladi. Sozimizning isboti quyidagi rasmlardan malum;



1960-yildagi turar joy uyi [arxiv malumotlaridan olingan]

Ayvonlarning qurilishidan asosiy maqsad bu Xorazm iqlim sharoitining keskinkantinintal bo'lganligidir. Birgina Xiva shahrining o'zida uylarning joylashuvuga qarab me'morlar turli uslubda loyihalashgan va bunyod etishgan.

Yuqorida takidlab o'tganiday ob-havoning turli injiqliklaridan qisman bo'lsa ham uydagi mikroiqlimni yaxshi bo'lishiga sabab bo'lgan. Ular tushayotgan quyosh nurlarini uy devorlarini 2/3 qismini soya bilan taminlagan bo'lgani uchun uydagi salqin havo kun davomida o'zgarmasdan turishini taminlagan, qish kunlari esa quyosh nurini tog'ri uyga tushushini taminlash uchun ota bobolarimiz astranomiyani ham yaxshi o'rganganlar degan g'oyani ilgari surishdan boshqa manoli izoh yo'qdir. Chunki izlanishlar shuni ko'rsatadiki turar joy binosining ayvon loyihagan tomondagi devordagi derazalarga quyosh nurini tushushishi aniq hisoblangan, yozda quyosh nurlari xonaga qisman tushgan bo'lsa qish kunlari to'g'ridan to'g'ri tushushi taminlangan.




1900-yildagi turar joyda oila ulli ayvonda dam olishmoqda [arxiv malumotlaridan olingan]

Urganch shahrining turar joylarining alohida tomoni bu dalonning uyning markazida joylashishi

E-mail address: editor@centralasianstudies.org  
(ISSN: 2660-6844). Hosting by Central Asian Studies. All rights reserved.

shu bilan birga ushbu xonaning boshqa xonalardan hajmiy jihatdan shakillanishi 1.5 -2 m baland qilib quriladi. Bundan ko'zlangan maqsad shaharda zikh joylashgan uylani ichkarisida ham yaxshi iqlim sharoitini yaratishdir. Ayrim xollarda devorning baland qismi toliqligicha derazadan tashkil topga. Bu o'z navbatida uyni yorug' bolishini taminlab bergen. Ming afsuski xozirda bunday turar joylar qolmagan. Quyidagi chizmada shamol aylanish sxemasini ko'rishimiz mumkun.



[Djumaboyev H. dissertatsiyasidan namuna]

Yuqorida keltirilgan misollardan bilishimiz mumkunki bizning ajdodlarimiz yuqori darajada ilim fanni yaxshi egallaganlar shu bilan birga xayotda qo'llay ham olganlar. Bunday misollarni yana ko'plab davom ettirish mumkun lekin xulosa o'zgarmaydi. Xulosa qilib aytadigon bo'lsak tarixiy bino inshoatlarimiz o'zida juda ham ko'p sir sinoatlarni saqlab kelmoqda, shu bilan birga ko'plab muammolarni yechimini ham. Ularni o'rganish orqali ko'plab arxitekturada yengilliklarni yaratish mumkun. Xozirgi kunda viloyatimizda turar joy binolari o'zida nafaqat zamonaviy balki an'analarga ham kata ahamyat berib qurishyapti. Bu albatda juda quvonarli holdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. M. Ubaydullayevning "Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari" kitobi, T., 2009;
2. Djumaboyev H. Xorazm ayvonli uylari tipologiyasini o'rganish. Doktorlik dissertatsiya T. 1989.
3. Raximova L. An'anaviy uylarning zamonaviy turarjoy binolarida aks ettirilishi (Xorazm viloyati misolida) magistrlik dissertatsiya T.2019.